

ISFARAK (*DELPHINIUM L.*) O'SIMLIGINING DORIVORLIK XUSUSIYATLARI.

Sobirov Islomjon Ilhomjon o'g'li

Andijon davlat pedagogika instituti Aniq va tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi fakulteti, biologiya yo'nalishi talabasi.

Islomjonsobirov2003@gmail.com

Sobirjonov Saydullo Mansurbek o'g'li

Andijon davlat pedagogika instituti Aniq va tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi fakulteti, biologiya yo'nalishi talabasi.

Annotatsiya: *Ushbu tezisdagi tabobat sohasida insonlar uchun ahamiyatli bo'lgan tomonlari va dorivor o'simliklardan oqilona va samarali foydalanish to'g'risida axborotlar keltirilgan.*

Annotation: *In this thesis, information is presented about the aspects that are important for people and the rational and effective use of medicinal plants in the field of medicine.*

Аннотация: *В данной диссертации представлена информация о важных для человека аспектах и рациональном и эффективном использовании лекарственных растений в области медицины.*

Kalit so'zlar: *Dorivor isfarak, hom ashyo, dorivorlik, kimyoviy tarkibi, xalq tabobati.*

Key words: *Medicinal consumption, raw materials, medicine, chemical composition, folk medicine.*

Ключевые слова: *Лекарственное потребление, сырье, лекарство, химический состав, народная медицина.*

Hozirgi davrdagi muhim masalalardan biri inson salomatligi bo'lib ularni tabiiy yo'l bilan davolash muhim masala hisoblanadi. global . Farmasevtika sanoatida tabiiy dorilarni tayyorlash va sotuvlarga chiqarish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Qadim zamonlardan yashab ijod qilgan olimlar ham o'z asarlarida insonlarda uchraydigan kasalliklarni dorivor o'simliklar orqali davolash yo'llarini yozib qoldirgan. Biz dorivor o'simliklar asarab avaylash ehtiyot qilish bilan birga tabiatni chroyini , turli hil shifobaxsh o'simliklarni , tabiatni chiroyini asarb qolgan bo'lamiz. Biz ulardan to'g'ri foydalanish bilan birga o'z sog'lig'imiz uchun ,qolaversa kelajak avlod sog'lig'i uchun kerak bo'ladigan o'simliklarni asrab qolgan bo'lamiz. Dorivor o'simliklar bilish oqilona foydalanish uni qachon qaysi qismini yeg'ib olishimizni bilishimizdadir.Shundagina dorivor o'simliklar o'zini dorivorlik xususiyatlari saqlab qoladi. Agar ularda nojo'ya foydalanadigan bo'lsak ularni qayta o'sib chiqmasligiga , natijada yo'q bo'lib ketishiga olib keladi.Shuning uchun o'simliklar asarab avaylaylik ularni.

Isfarak — ko'p yillik o'tsimon o'simlik. poyasining uzunligi 30—80 santimetr gacha bo'ladi. Yarmidan yuqorisi tukli, pastki qismi juda mayda, yotiq tuklar bilan qo'langan. Isfarak-ning bandli yaproqlari besh bo'lakka bo'lingan. Gulyon bargchalaridagi gullar sariq rangda. Gulyon bargchalari uchli, gulbandlari qisqa, silliq, qator tizilgan, uzunligi qariyb 3—4 santimetr. Gulqo'rg'onining bargchalari to'mtoq, quyi yonbargchalar teskari — tuxumsimon, yuqori yon-bargchalar keng teskari — tuxumsimon, uzunligi 1,2—1,5 santimetr, eni esa 1 santimetr gacha keladi. Isfarak O'zbekistonda juda keng tarqalgan. U tog' oldi qismidagi pasttekisliklardagi adirlarda, yarimcho'l zonalarida, toshloq, mayda shag'alli hamda sog' tuproqli yerlarda tarqalgan. Bahzan lalmikor yerlardagi ekinzorlar orasida ham uchrab turadi. Isfarak dengiz sathidan 1300 metr baland bo'lgan maydonlargacha ko'tarilgan. Isfarakning bo'yoqboplik xususiyati qadimdan ma'lum. Eron va Afg'onistonda uzoq yillardan beri bu o'simlikdan ajoyib sariq bo'yoqlar olib kelinadi. Sariq bo'yoq moddalari uning gullaridan olinadi. Bo'yoq moddasining asosi. S15N1007 formulaga ega bo'lgan va tezobli bo'yoqlarga mansub kvartsetindir. Bu bo'yoq bilan alyumin tuzlari aralastirilib bo'yalganida sariq tuslar hosil qilinadi. Lekin hozirgi paytda xromli bo'yashda ham keng qo'llanilmoqda. Isfarak bo'yoqlari bilan junli va ipakli gazlamalar bo'yalganida eng yaxshi rangni hosil qilish mumkin. Bu bo'yoqlar yorug'lik nurlari uzoq vaqt ta'sir qilsa ham, ko'p yuvilsa ham, aynimaydi. Gullari tutam bo'lib uzun gulbandlarda joylashgan, pastki uchdan bir qismida yoki o'rtasida birikadi. Gulqo'rg'on barglari deyarli bir xil, uzunligi 3 mm va eni 1 mm, yashil rangga ega. Mevalar yirik, keng ovalsimon, uzunligi 15-20 mm va eni 10-15 mm, tuxumsimon burushgan, binafsha-jigarrang yong'oqchaga ega; qanotlarini kengligi yong'oqchaga teng yoki biroz toraygan, binafsha-qizil, asosida va yuqorida yuraksimon, uyilgan, o'tkazuvchi bog'lami chetidan 0,5-1 mm masofada o'tadi. May-iyul oylarida gullaydi va mevalaydi. O'sish joyi.

Tarqalishi: Tog'larning O'rta mintaqalarida o'tli yoki shag'alli qiyaliklarda uchraydi. U Toshkent, Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida uchraydi.

Xom ashyoni yig'ish va uning sifati: Isfarak ildizsiz yer usti qismi sanoat qayta ishlovi uchun dorivor xom ashyo sifatida ishlatiladi. Gullash davrida bargli yuqori qismlari, gullari yoki barcha yer usti qismi, shuningdek, to'liq pishib yetilish davrida mevalari xom ashyo sifatida yig'iladi. Yig'ilgan xom ashyo aralashmalardan tozalanishi va yaxshilab quritilishi kerak.

Kimyoviy tarkibi: Isfarakning asosiy tarkibiy qismi alkaloidlarh delsemin, elatin, kondelfin va meliktin bo'lib, ularning farmakologik xususiyatlari tegishli preparatlarni tavsiflashda quyida keltiriladi.

Tibbiyotda qo'llanilishi: Delsimin va boshqa isfarak alkaloidlari analogik ta'sirga ega, bu uning bir vaqtning o'zida mionevral sinapslarga (asab hujayrasi o'simtasi shoxlarining tegib turish sohasi - aksonning boshqa hujayralar bilan) va markaziy asab tizimiga ta'siriga asoslangan. Uning faoliyati individual mushaklarning falaji bilan

ifodalanadi – quyidagi tartibda yuzaga keladigan guruhlar: yuz, oyoqlar, qo'llar, qorin mushaklari va oxirgi navbatda – diafragma. Xalq tabobatida isfarak barglari – astma va tutqanoqli yo'tal, shuningdek, qo'zg'atuvchi, birikturuvchi vosita sifatida; gullari choy shaklida hayz ko'rish kechikkanda va yangi o'tining sharbati yaralarni davolash uchun ishlatiladi.

Ogohlantirish: O'simlik zaharli hisoblanadi va ishlatilganda alohida e'tibor talab etiladi.

Xo'jalik ahamiyati. O'simlik gullaridan paxta, jun va ipak matolarni bo'yash uchun turg'un bo'yoq olinadi. O'tgan vaqtda yorug'lik filtrlarini ishlab chiqarish uchun ham ishlatilgan.

Yuqorida ISFARAK (DELPHINIUM L.) o'simligi dorivorlik xususiyatlari haqida batafsil ma'lumot berilgan. Keyingi izlanishlarda usbu o'simlik oilasining O'zbekiston florasidagi ahamiyati haqida ilmiy ish olib boramiz. Ushbu tezisdami ma'lumotlarga tayangan holda ko'pgina o'simliklar dorivorlik xususiyatlari haqida ilmiy tadqiqotlar olib borish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ahmedov O., Ergashev A., Abzalov A. va boshq. Dorivor o'simliklar yetishtirish texnologiyasi va ekologiya. Toshkent. Tafakku-bo'ston. 2018. 2 B.
2. Xolmatov. X.X, Xabibov O'zbekiston Dorivor o'simliklar. Xolmatov.
3. Toshkent 1971
4. E.T.Berdiyev , M.H.Hakimova G.B.Maxmudova "O'rmon dorivor o'simliklari" Tosh. 2016 -yil
5. M.A. Jo'rayeva "Dorivor o'simliklar atlas" Tosh. 2019-yil.
6. .A taboyeva H .N . vaboshqalar. O'simlikshunoslik. Toshkent, 1995
7. www.ziyonet.uz
8. www.Lex.uz.
9. www.uzpharm-control.uz.
10. www.doridarmon.uz